XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2022 - yil 5 - iyul VI-45-132-8-108-K/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumanidagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida"gi O'RQ-303-son qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022- yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi A.Djumayevning tumandagi ayrim Geografik ob'ektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Tuman bo‘yicha berilgan jami 12 ta georgafik obyektlar (nomsiz ko‘chalar) mahallalar kesimida nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud 12 ta geografik obyektlar (nomsiz ko‘chalar)ning nomlash bo‘yicha berilgan takliflar Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, tasdiqlash maqsadida

xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida davlat reestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

5.Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman
Kengashining
2022 yil 5 iyuldagi
VI-45-132-8-108-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha berilgan nomlarni Respublika Kadastr agentlgi tomonidan ekspertizadan o‘tkazish maqsadida berilgan takliflar ro‘yxati

№	Gegrafik obeyktning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh:
1	2	3	4	5	6
1.	**Ko‘cha**	“ Gulchechak” MFY	Nomsiz	Shon-sharaf	Tumanimizdagi veteran bobolarning vatanimiz oldidagi shon-sharafili xizmatiga yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.
2	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Salomatlik	Ushbu hududda ko‘plab tibbiyot ilm egalari ko‘p bo‘lishi va salomatlik uzviy bo‘lishi yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.
3	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Oltin buloq	Ushbu hududda ko‘plab buloqlarning ko‘payishi yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.
4	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Ishbilarmonlar	Hududda tadbirkor va ishbilarmon insonlarning ko‘payishi sababli ushbu nom taklifi berildi.
5	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Orzu	Ko‘cha hududida orzumand insonlarning ko‘pligi sababli uchun shu nom taklifi berildi
6	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Bodomzor	Ushbu hududda ko‘plab bodom ko‘chatlari ekilgani sababli ushbu nom taklifi berildi.
7	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Suv Buloq	Ushbu hududda buloqlarning ko‘p bo‘lishi yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.

№	Gegrafik obeyktning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh:
8	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Shodlik zavqi	Ushbu hududda ko‘plab to‘y va hashamlar ko‘p bo‘lishi va odamlar zavqqa to‘lishi yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.
9	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Vatanparvar	Hudud yoshlarining kelajakda vatanga sadoqat bilan xizmat qilishi sharafiga nom taklifi berildi.
10	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Kitobsevarlar	Ushbu hududda ko‘plab kitobsevarlarning istiqomat qilishi sababli ushbu nom taklifi berildi.
11	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Paxtakor	Ushbu hududda asosan paxtakor va pillakor insonlarning borligi uchun shu nom taklifi berildi.
12	**Ko‘cha**	“ Jilibuloq” MFY	Nomsiz	Gulhayot	Gulhayot deganda avvalo insonlarning hayoti gulday bo‘lishi niyat qilinib, shu nom taklifi berildi.